



## BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION- INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

**Yoqubova Maftuna Shoyim qizi**

Navoiy davlat universiteti magistranti

E-mail: myoqubova.@gmail.com

**Jo'raqulova Maftuna Latifovna**

Xatirchi tumani 15-maktab o'qituvchisi

E-mail: mjuraqulova.@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion-interfaol metodlar va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar beradi. Maqolada o'qituvchilarning ilg'or tajribalari, dars ishlanmalari va interaktiv mashqlar namunalari keltiriladi. Shuningdek, maqolada matematika darslarida o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha maslahatlar beriladi. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun foydali manba bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** innovatsion metodlar, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, ta'lim, dars, o'qitish, o'yinli texnologiyalar, AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari).

**Аннотация.** В данной статье даны практические рекомендации, направленные на повышение качества знаний учащихся за счет применения инновационно-интерактивных методов и новых педагогических технологий на уроках математики в начальных классах. В статье представлены примеры передового опыта учителей, разработки уроков и интерактивных упражнений. Также в статье даны советы по пробуждению интереса учащихся на уроках математики, развитию их самостоятельного мышления и творческих способностей. Статья может стать полезным ресурсом для учителей начальных классов, методистов и специалистов в области образования.

**Ключевые слова:** инновационные методы, интерактивные методы, педагогические технологии, образование, урок, обучение, игровые технологии, ИКТ (информационно-коммуникационные технологии).

**Annotation.** This article provides practical recommendations aimed at improving the quality of knowledge of students through the use of innovative-interactive methods and new pedagogical technologies in elementary school mathematics lessons. The article samples advanced teacher experiences, lesson developments, and interactive exercises. The article also provides advice on arousing students' interest in math classes, developing their independent thinking and creative abilities. The article can be a useful resource for primary school teachers, Methodists, and education professionals.

**Key words:** innovative methods, interactive methods, pedagogical technologies, education, lesson, teaching, gaming technologies, ICT (Information and communication technologies).

### KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich sinflarda olingan bilimlar o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin yaratadi. Matematika esa boshlang'ich ta'limning asosiy fanlaridan biri bo'lib, o'quvchilarda



mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf matematika darslarining sifatini oshirish, o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy usullaridan foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

*Ta'lim sifatini oshirish zarurati:* Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimiga yuqori talablar qo'yimoqda. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularda fanga qiziqish uyg'otish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir.

*Innovatsion texnologiyalarning roli:* Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim jarayoniga keng joriy etilmoqda. Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va interaktiv qilish imkonini beradi.

*Interfaol metodlarning ahamiyati:* An'anaviy ta'lim usullari o'quvchilarning faolligini ta'minlashda yetarli emas. Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni faol ishtirok etishga, o'z fikrlarini ifodalashga, hamkorlikda ishlashga va muammolarni hal qilishga undaydi.

*Yangi pedagogik texnologiyalarga ehtiyoj:* Ta'lim sohasida yangi pedagogik texnologiyalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu texnologiyalardan xabardor bo'lishlari, ularni o'z darslarida samarali qo'llay olishlari zarur.

*O'qituvchilarning malakasini oshirish:* Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion metodlar va texnologiyalar bo'yicha bilimlarini oshirish, ularga metodik yordam ko'rsatish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

## **METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI**

*Nazariy tahlil:* Pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish orqali boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion-interfaol metodlardan foydalanishning nazariy asoslari o'rganildi.

*Kuzatuv:* Boshlang'ich sinf matematika darslari kuzatildi, o'qituvchilarning dars o'tish uslublari, o'quvchilarning faolligi va o'zlashtirish darajasi tahlil qilindi.

*So'rovnoma:* Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga so'rovnoma o'tkazildi, ularning innovatsion metodlar va texnologiyalar haqidagi bilim darajasi, ularni darslarda qo'llash tajribasi va muammolari aniqlandi.

*Intervyu:* Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va metodistlar bilan intervyu o'tkazildi, ularning fikrlari, takliflari va tajribalari o'rganildi.

*Tajriba-sinov ishlari:* Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion-interfaol metodlar va yangi pedagogik texnologiyalar sinovdan o'tkazildi, ularning samaradorligi baholandi.



*Statistik tahlil:* Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi, natijalar umumlashtirildi va xulosalar chiqarildi.

*Chet el tadqiqotchilari:* J.Piaget, L.Vigotskiy, J.Bruner, D.Ausubel va boshqa olimlar o'quv jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning bilish faoliyatini rivojlantirish va o'qitishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan.

*O'zbekiston tadqiqotchilari:* G'.Shoumarov, M.Maxmudov, B.Xodjayeov, U.To'xtayev va boshqa olimlar matematika ta'limining metodik asoslarini takomillashtirish, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

*O'rganilmagan jihatlar:* Shunga qaramay, boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion-interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, ularni o'quv jarayoniga integratsiyalashning samarali yo'llari, o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini oshirish masalalari to'liq o'rganilmagan. Ushbu tadqiqotda yuqoridagi muammolarni hal etishga qaratilgan yondashuvlar taklif etiladi.

### **TADQIQOT NATIJASI**

Barchaga ma'lumki, interfaol metodlardan foydalanishdan maqsad o'quvchilarni fanga qiziqtirish, ularga ko'proq ma'lumot berish, o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatish, o'z bilimlarini erkin bayon eta olish, boshqalar bilan tezda bahs-munozaraga kirishib keta olish, tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatlarini shallantirishni ta'minlaydi. Amalda esa: o'qituvchilarimiz interfaol metodlardan – o'quvchilarni qiziqtirish, o'ziga jalb qilish, o'quvchini baholash, vaqtni tejash, ba'zi hollarda vaqtni o'tkazish sifatida foydalanib kelmoqdalar. Bugungi kunda ko'plab interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar mavjud. Biroq, ularning barchasi bir xil samara beravermaydi. O'qituvchi ushbu metodlarni to'g'ri tanlashi va o'z o'rnida ishlata olishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini, ularning yoshini, salohiyatini, o'qitiladigan fani, mavzusi, mashg'ulotlar turi va tipi, vaqtini hisobga olgan holda, ularni amalga oshirish uchun sharoit yaratib, pedagogik texnologiyalarni tanlashi kerak. Darslarda qo'llaniladigan interfaol metodlarni barcha fanlarni o'qitishda foydalanib bo'lmaydi. Masalan, matematikada qo'llaniladigan texnologiyani tarixga, 8-10 sinflarda qo'llaniladigan metodlarni 1-2 sinflarga o'qitish uchun qo'llash imkoniyati juda kam. Shularni inobatga olgan holda, barcha o'quvchini ko'p narsaga o'rgatishimiz kerak. Shu o'rinda tajribadan kelib chiqib, uni pedagogik amaliyotda qo'llab kelayotgan interfaol metodlardan biri "Eng yaxshi yordamchi o'qituvchi" texnologiyasini qo'llash uslubiyotini ko'rib chiqsak. "Eng yaxshi yordamchi o'qituvchi" texnologiyasi.



*Texnologiya tavsifi:* Ushbu texnologiya o'quvchilarni hayotda faol o'rnini topishga, peshqadamlik, sardorlik sifatlarini, boshqaruvchanlik hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqalarga ko'mak berish hissini uyg'otishga yordam beradi.

*Texnologiya maqsadi:* qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarning darsdagi ishtirokini ta'minlash, ularni o'z o'rnida baholash, o'quvchilarni bola nigohida tarbiyalash, topshiriqlarni tezda bajarishga o'rgatish, o'quvchilarga o'qituvchi ruhini (rolini) o'rgatish.

*Texnologiyaning qo'llanilishi:* texnologiya asosan o'quvchilar uchun topshiriqlarni bajarish va sinovdan o'tkazish, ya'ni uy vazifasini, darsga tayyorligini, o'zlashtirish darajasini aniqlash va ularni baholab taqdirlash, o'quvchilardan o'qituvchi yordamchisi sifatida foydalanish. Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, darslikdan topshiriqlar, qizil ruchkalar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- texnologiya shartlari tanishtiriladi;
- o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi (kichik guruh odatda parta qatorlari bo'yicha bo'linadi);
- o'quvchilarga topshiriqlar beriladi (doskaga yoziladi yoki kitobga yo'naltiriladi yoki oldindan tayyorlangan tarqatma materiallar tarqatiladi);
- o'quvchilar topshiriqlarni mustaqil ishlashga yo'naltiriladi;
- topshiriqni to'g'ri bajargan birinchi o'quvchi tekshiriladi va o'z guruhiga "yordamchi o'qituvchi" etib tayinlanadi;
- guruhlar soniga mos yordamchi o'qituvchilar tanlanadi;
- har bir topshiriqdan so'ng yordamchi o'qituvchi yangilanadi (agar topshiriqni guruhda tayinlangan "yordamchi o'qituvchi"dan oldin bajargan bo'lsa).
- "yordamchi o'qituvchi"lar guruh a'zolarini (ya'ni, sinfdoshlarini) topshiriqlarning bajarilishini nazorat qiladi va ularni baholaydi. Shuningdek, yordamchi o'qituvchi, qiyinchiliklarga duch kelgan yoki topshiriqlarni bajara olmayotgan sinfdoshlariga yordamlashadi;
- o'qituvchi yordamchisi o'quvchilarning misol yoki muammo ustida boshqacha usulda ishlaganligini aniqlaydi va uni e'lon qiladi, aks holda, agar muammo noto'g'ri deb hisoblansa, muammo ustida ishlagan o'quvchi metodni himoya qiladi va uning o'rnini yordamchi o'qituvchi sifatida egallaydi;
- o'qituvchi ish jarayonini nazorat qiladi, baholangan o'quvchilarni hisobga oladi va guruhni boshqarib turadi;
- dars yakunida "Eng yaxshi yordamchi o'qituvchi" e'lon qilinadi.



Ushbu “Eng yaxshi yordamchi o‘qituvchi” texnologiyasini matematika, shunga o‘xshash ko‘p topshiriqlar bilan ishlash talab etiladigan fanlarda, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar bajarish va ularni tekshirish uchun foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki, matematikada 10, 20 va undan ortiq misol va masalalar bitta darsda keltirilgan. Bundan tashqari ba’zi sinflarda 20 tagacha misol uy vazifasi sifatida beriladi. Bunday hollarda aksariyat o‘qituvchilarning uy vazifalarini ko‘rib chiqishga vaqti yetmaydi. Natijada topshiriqlarni “xo‘jako‘rsinga” baholab chiqadi yoki aylanma daftar tashkil qiladi, uyga vazifani keyin tekshirish uchun daftarlarni yig‘ib oladi va boshqa oldindan tayyorlangan daftarlarni tarqatadi. Ikkala holatda ham o‘quvchini mehnati vaqtida taqdirlanmaydi. Natijada, o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan ishtiyoqi so‘nadi. Dars mobaynida bajariladigan misollarni baholashda ham vaqt kamligi, o‘quvchilarning ko‘pligi kabi sabablarga ko‘ra aksariyat o‘qituvchilar natijaga qarab baholaydi. Misollarni ishlash usulini ko‘rishga fursat yetmaydi. Natijada, bo‘shliqlar hosil qiladi va o‘quvchilarni shu zayilda ishlashga o‘rgatib qo‘yadi.

“Yordamchi o‘qituvchi”larning ko‘magida “Eng yaxshi yordamchi o‘qituvchi” texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning ish uslublarini o‘z vaqtida aniqlashga va ularning kamchiliklarini vaqtida tuzatishga yordam beradi.

“Eng yaxshi yordamchi o‘qituvchi” texnologiyasidan foydalanish orqali quyidagilarga erishiladi:

- o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlaydi va ularning rivojlanishi uchun zamin tayyorlaydi;
- o‘quvchilarni topshiriqlarni tez bajarishga motivatsiya beradi;
- barcha o‘quvchilar baholanadi;
- o‘quvchilarni baholashdaning aniqligini oshiradi;
- vaqtdan unumli foydalanib, qo‘shimcha ma’lumot olishga zamin yaratadi;
- topshiriqlarni ko‘p variantlikda ishlashga o‘rgatadi;
- topshiriqlarni bajarishning boshqa usullarini o‘ylab topishga o‘rgatadi;
- o‘quvchilarni o‘zaro muloqot qilish va bir-biriga yordam berishga o‘rgatadi; va hokazo.

## XULOSA

Xulosa sifatida shularni aytamizki bu kabi interfaol metodlarni dars jarayonida qo‘llab o‘quv jarayonini beixtiyor psixologik o‘yin yoki musobaqaga aylantirib, barcha o‘quvchilarni bir oz bo‘lsada o‘z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo‘lmasdan faol ishtirok etishga, guruhda “lider” bo‘lishga undaydi. Shu bilan birga o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, mas’uliyat, halollik, e’tibor va mehnatsevarlik xususiyatlarini



shakllantirishga olib keladi. O'quvchini o'qituvchi rovida jalb qilish orqali, o'quvchilarning bilimlarini orttirishga erishiladi. "O'qitish – ikki karra o'rganish" deb yozadi fransuz yozuvchisi J.Juber.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Furkatovna, A. S. (2025). Boshlang'ich ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida matematika darsini tashkil etish. *Fan va Tadqiqot Samaralari*, 2(3), 67-74.
2. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinf matematika darslari metodikasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 2017.
3. To'xtayev U. Matematika o'qitish metodikasi. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015.
4. Boltayev B., Jumayev M. Matematika o'qitishning zamonaviy usullari. - Toshkent: "Noshir", 2019.
5. Maxmudov M. Pedagogik texnologiyalar - ta'lim samaradorligi omili. - Toshkent: "Fan", 2010.
6. Xodjayev B. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: "Turon-Iqbol", 2014.
7. Sharipov Sh. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2020, 3-son.
8. Ziyonet ta'lim portali. <https://www.ziyonet.uz>
9. Pedagogika.uz sayti. <https://pedagogika.uz>